



## XURSHID DO'STMUHAMMAD HIKOYALARIDA RAMZIY OBRAZLAR IFODASI

***BO'RIYEVA ZARINABONU SOLIBOY QIZI***

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*2-kurs magistranti*

[zarinaboriyeva00@gmail.com](mailto:zarinaboriyeva00@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida ramziy obrazlarning badiiy-estetik funksiyasi tahlil qilinadi. Adib asarlarida uchraydigan inson, tabiat, bilan bog'liq ramziy obrazlarning mazmun-mohiyati hamda ularning g'oyaviy yukni ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot jarayonida yozuvchining ramzlardan foydalanish mahorati, qahramonlarning ichki kechinmalarini ochib berishdagi badiiy usullari va milliy tafakkur bilan bog'liq ramziy tasvirlari tahlil etiladi. Shuningdek, ramziy obrazlar orqali inson va jamiyat, ma'naviyat va borliq, ezgulik va yovuzlik kabi falsafiy masalalarning ifodalanish xususiyatlarini ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarining poetik xususiyatlarini chuqurroq anglash hamda zamonaviy o'zbek nasrida ramziylik masalasini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Xurshid Do'stmuhammad, hikoya, ramziy obraz, ramziylik, badiiy talqin, poetika, badiiy tafakkur, obrazlar tizimi, falsafiy mazmun, milliy ruh, adabiy ramz, zamonaviy o'zbek nasri.

### KIRISH

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti inson ruhiyati, milliy tafakkur va ma'naviy qadriyatlarni yangicha badiiy talqin etishga intilishi bilan ajralib turadi. Bu davr nasrida voqelikni bevosita tasvirlashdan ko'ra, uning ichki mohiyatini ramzlar, timsollar va majoziy obrazlar vositasida ifodalash tendensiyasi kuchaydi. Natijada



badiiy asarlarda ramziy obrazlar nafaqat estetik vosita, balki muallif g'oyasini chuqurroq ochib beruvchi muhim poetik unsur sifatida namoyon bo'la boshladi. Zamonaviy o'zbek nasrining yetuk vakillaridan biri Xurshid Do'stmuhammad ijodi ham o'zining falsafiy mushohadaga boyligi, inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini badiiy tadqiq etishga intilishi hamda ramziy tasvirlarga keng o'rin berishi bilan e'tiborni tortadi. Adib hikoyalarida voqealar tasviri ko'pincha ramziy obrazlar orqali ifodalanib, ular asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini boyitishga xizmat qiladi. Yozuvchi yaratgan ramzlar insonning ichki olami, ma'naviy izlanishlari, jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muammolar va hayot falsafasini teranroq anglash imkonini beradi.

Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida ramziy obrazlar turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ayrim hollarda tabiat unsurlari, qush va hayvonlar, turli buyumlar yoki hodisalar muallif tomonidan ramziy ma'noda qo'llanilib, qahramonlarning ruhiy kechinmalari va asarning falsafiy qatlamlarini ochishga xizmat qiladi. Bunday obrazlar o'quvchini faqat voqealar rivojini kuzatishga emas, balki matn ostidagi yashirin ma'nolarni anglashga ham undaydi. Adabiyotshunoslikda ramziylik masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, Xurshid Do'stmuhammad hikoyalaridagi ramziy obrazlarning poetik vazifasi va badiiy-estetik xususiyatlarini maxsus tadqiq etish bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki yozuvchi ijodidagi ramzlar tizimi uning individual uslubini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida uchraydigan ramziy obrazlarning badiiy talqinini tahlil qilish, ularning g'oyaviy-estetik vazifalarini aniqlash hamda yozuvchi ijodida ramziylikning o'ziga xos namoyon bo'lish xususiyatlarini yoritishdan iboratdir. Tadqiqot natijalari zamonaviy o'zbek nasrining poetik imkoniyatlarini chuqurroq anglash, shuningdek, Xurshid Do'stmuhammad ijodining badiiy olamini ilmiy jihatdan tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.



## ASOSIY QISM

*Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida ramziy obrazlarning badiiy talqini*

Badiiy adabiyotda ramziy obrazlar muallifning estetik idealini, hayot haqidagi falsafiy qarashlarini hamda inson va jamiyat munosabatlariga doir konseptual fikrlarini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Ramz voqelikning bevosita tasviri emas, balki uning yashirin ma'nolarini ochishga xizmat qiluvchi badiiy hodisadir. Shu bois zamonaviy o'zbek nasrida ramziylik masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida ham ramziy obrazlar asarning badiiy-estetik qimmatini belgilovchi muhim poetik unsur sifatida namoyon bo'ladi. Adib ijodida ramzlar ko'pincha inson ruhiyati va ma'naviy olamini tasvirlash vositasi sifatida qo'llanadi. Yozuvchi qahramonlarning ichki kechinmalarini to'g'ridan-to'g'ri bayon qilish o'rniga, detallar orqali ifodalashga intiladi. Natijada hikoyalardagi voqealar tasviri falsafiy mazmun bilan boyib, o'quvchini mushohada yuritishga undaydi.

Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida qush obrazlari alohida ramziy ma'no kasb etadi. "Beozor qushning qarg'ishi" hikoyasi aynan shunday hikoya. Mazkur hikoyada insonning tabiatga munosabati, beparvolik oqibatlari, vijdon azobi va ruhiy iztirob masalalari chuqur psixologik talqinda yoritiladi. Asar markazida beozor mavjudotga yetkazilgan ozor va uning inson qalbida uyg'otgan kechinmalari turadi. Asar yuzaki qaraganda oddiy bir voqea tasvirdek ko'rinsa-da, mohiyat e'tibori bilan unda insonning tabiatiga va tirik mavjudotlarga munosabati badiiy tadqiq etiladi. Qush ko'pincha erkinlik, ruhiy ozodlik, insonning orzu-intilishlari va ma'naviy yuksalish ramzi sifatida talqin qilinadi. Qush obrazi nafaqat voqea ishtirokchisi, balki muayyan falsafiy g'oyaning tashuvchisi vazifasini ham bajaradi.

O'zbek adabiyotida yo'l Allohga yaqinlashuvning timsoli sifatida qalamga olinadi. Yozuvchining "Katta ko'cha" nomli hikoyasida ham shu kabi inson ruhiyatidagi evrilishlarning aksini ko'ramiz. Yozuvchi yo'l obrazining badiiy talqinini tasavvuf g'oyalari asosida qalam tebratganki, hikoyadagi yo'l (katta



ko‘cha) bo‘ylab harakatlanish bu jihatdan markaziy ramziy ahamiyatga ega. Hikoya an‘anaviy tarzda tugun bilan boshlangan. Hikoya syujeti yo‘l motivi bilan bog‘liq. Masalan, daraxt obrazi hayot davomiyligi, avlodlar bog‘liqligi va ma‘naviy ildizlarga sodiqlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Suv esa poklanish, yangilanish va ruhiy kamolot timsoli sifatida talqin etiladi. Bunday ramzlar asar mazmunining ko‘p qatlamli bo‘lishini ta‘minlaydi.

### Jadval 1

#### Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarida uchraydigan ayrim ramziy obrazlar va ularning ma‘nolari<sup>1</sup>

Ramziy obraz	Ramziy ma‘nosi	Badiiy vazifasi
Qush	Erkinlik, ruhiy ozodlik	Qahramonning ichki intilishlarini ifodalash
Daraxt	Hayotiy davomiylik, ildizlarga sodiqlik	Avlodlar va qadriyatlar bog‘liqligini ko‘rsatish
Suv	Poklanish, yangilanish	Ruhiy o‘zgarishlarni tasvirlash
Shabada	Beqarorlik, zamon nafasi	Hayotdagi o‘zgarishlarni anglatish
Yo‘l	Taqdir va hayot sinovlari	Qahramonning ma‘naviy izlanishlarini yoritish

Jadvalda yozuvchi hikoyalarida ko‘p uchraydigan ramziy obrazlar va ularning badiiy-falsafiy mazmuni umumlashtirilgan. Ushbu ramzlar asarning g‘oyaviy qatlamini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ramziy obrazlarning yana bir muhim xususiyati shundaki, ular qahramon xarakterini ochib berishda faol ishtirok etadi. Muallif ayrim predmetlar yoki hodisalarni qahramonning ruhiy holati bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada obraz va qahramon o‘rtasida ma‘naviy bog‘liqlik yuzaga

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi



keladi. Bu esa badiiy matnning ta'sirchanligini kuchaytirib, o'quvchini obrazlar mohiyatini teranroq anglashga undaydi.

Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida yo'l obrazi ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu ramz inson hayotining murakkab yo'li, ma'naviy izlanishlari va taqdir sinovlarini ifodalaydi. Yo'l obrazining turli vaziyatlarda takrorlanishi qahramonning ichki kamolot sari harakatini ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu esa adibning inson hayotiga falsafiy munosabatini ifodalovchi muhim poetik vosita hisoblanadi.

### XULOSA

Xurshid Do'stmuhammad zamonaviy o'zbek nasrida ramziylikdan samarali foydalangan adiblardan biri hisoblanadi. Uning hikoyalarida qo'llangan ramziy obrazlar badiiy matnning estetik ta'sirchanligini kuchaytirish bilan birga, asarning falsafiy va g'oyaviy mazmunini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Yozuvchi voqea va qahramonlar tasvirini ramzlar orqali boyitib, inson ruhiyati, ma'naviy izlanishlari hamda jamiyatdagi murakkab munosabatlarni o'ziga xos badiiy talqin etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, adib hikoyalarida tabiat obrazlari, jonivorlar va turli predmetlar ramziy ma'no kasb etib, qahramonlarning ichki dunyosini ochish hamda muallifning badiiy konsepsiyasini ifodalashda muhim vosita vazifasini bajaradi. Ayniqsa, qush, daraxt, suv, shamol va yo'l kabi obrazlar erkinlik, hayot davomiyligi, poklanish, o'zgarish hamda inson taqdiri bilan bog'liq falsafiy qarashlarni ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, Xurshid Do'stmuhammad hikoyalaridagi ramziy obrazlar o'quvchini voqealarni yuzaki qabul qilishdan ko'ra, matn ostidagi yashirin ma'nolarni anglashga undaydi. Bu esa yozuvchi asarlarining badiiy qimmatini oshirib, ularning ko'p qatlamli semantik tuzilishga ega ekanligini namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida ramziy obrazlar adib individual uslubining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular orqali inson va borliq, ezgulik va yovuzlik, ma'naviyat va hayot haqidagi falsafiy mushohadalar



badiiy jihatdan teran ifodalanadi. Shu bois yozuvchi hikoyalaridagi ramzlar tizimini o‘rganish nafaqat adib ijodining poetik xususiyatlarini, balki zamonaviy o‘zbek nasrining badiiy taraqqiyot tendensiyalarini anglashda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xurshid Do‘stmuhammad. Beozor qushning qarg‘ishi. – Toshkent: Sharq, 2006. – 432 b.
2. Qozoqboy Yo‘ldoshev. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 280 b.
3. Ibrohim Haqqul. Badiiy tafakkur va mahorat. – Toshkent: Fan, 2009. – 256 b.
4. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 368 b.
5. Mirvaliyev Sulton. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2010. – 412 b.